
Mahalla ichki ko'chalarining 2500 metr qismiga asfal't yotqizildi

"Sharof Rashidov" mahalla fuqarolar yig'inida ham "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida ichki ko'chalarni asfal'tlashtirish ishlari olib borildi. Loyihaning 2-bosqichida mahalladagi Sohibqiron Temur, Alisher Navoiy, Tantana ko'chalarida jami 2500 metr asfal't yotqizish taklifi kiritilib, fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlanib g'oliblar safidan joy olgan.

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov belgilangan ishlarning bajarilishi va sifatini o'rganish maqsadida mazkur mahallaga tashrif buyurdi. Mahalla xodimlari, quruvchilar va mutaxassislar ishtirokida bajarilgan ishlar o'rganildi.

Shuningdek, davlat xususiy-sherikchilik asosida mahalla fuqarolar yig'ini binosini qurish bo'yicha bildirilgan taklif ham shahar hokimi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Hududda bo'sh turgan yer maydonlarini o'rganish va taklif kiritish bo'yicha tegishli tashkilotlar rahbarlariga topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-29 15:06:34